

Renessans ta'lim universitetining birinchi kurs talabalariga Akademik grant tayinlash bo'yicha test sinovlarini o'tkazish tartibi

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Tartib O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-iyuldagi "2024-2025 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-36-son Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 3-apreldagi 261-son qaroriga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, u Renessans ta'lim universiteti (bundan buyon matnda Universitet deb yuritiladi)ning bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha kunduzgi va kechki ta'lim shaklida o'qishga qabul qilingan talabalarga Akademik grant tayinlash bo'yicha test sinovlarni o'tkazish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Tartibda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

akademik grant - Universitet tomonidan o'tkazilgan test sinovlari natijalariga ko'ra eng yuqori natija ko'rsatgan talabalarga bir o'quv yili uchun taqdim etiladi;

test topshiruvchi - belgilangan tartibda oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan Akademik grant olish uchun test sinovlarida ishtirok etuvchi talabgor;

guruh nazoratchisi - test sinovlarida test topshiruvchilar harakatiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish, test sinovining belgilangan tartib bo'yicha o'tishini qat'iy nazorat qilishga mas'ul bo'lgan va test topshiruvchilarga test sinovini topshirish tartibi bo'yicha amaliy yordam ko'rsatish uchun jalb qilingan shaxs;

javoblar varaqasi - test topshiriqlari kitobidagi har bir topshiriqning bajarilishi natijasida tanlagan javobning bittasini belgilashga mo'ljallangan va test topshiruvchining bilimni baholash uchun asos hisoblanadigan yagona hujjat;

qabul komissiyasi - ta'lim yo'nalishlariga hujjatlarni qabul qiluvchi, test sinovlari jarayoni bo'yicha maslahatlar, ko'rsatmalar beruvchi, test sinovlarini o'tkazishning tashkiliy masalalarida ishtirok etuvchi organ;

test topshiriqlari kitobi - belgilangan fanlar majmuasi bo'yicha test topshiriqlarini o'z ichiga olgan savollar to'plami;

3. Akademik grant kvotalar kunduzgi va kechi ta'lim shaklida ta'lim yo'nalishlari bo'yicha, universitet ta'rischilar kengashi tomonidan bir o'quv yiliga tasdiqlanadi. 2024-2025 o'quv yilida ta'lim yo'nalishlari kesimida 1-kurs talabalari orasidan tushgan arizalarga ko'ra talabgorlarning 10 foizi miqdorida belgilanadi.

4. Bunda talabgor test jarayonlariga ishtirok etib, tegishli yo'nalishlar bo'yicha fanlar to'plami uchun ajratilgan maksimal 189 ballning 71 % va undan yuqori (134.19ball >) ball to'plaganida tanlagan ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'plagan baliga mos ravishda ballar ketma-ketligida universitet akademik grantiga talabalikka tavsiya etiladi.

5. Universitet ta'rischilar kengashi Akademik grant kvotalarini o'zgartirish, test sinovlari natijalari yuzasidan minimal ballarni belgilash vakolatiga ega.

II. Test sinovlarini tashkil qilish

6. Test sinovlarini adolatli va xolisona o'tkazish mazkur tartib talablariga qat'iy rioya etgan holda Universitetning qabul komissiyasi, guruh nazoratchilari tomonidan ta'minlanadi.

7. Test sinovlari talabgorlar sonidan kelib chiqqan holda ikki smenada o'tkazilishi mumkin. Birinchi smena soat 10:00 da, ikkinchi smena soat 14:00 da boshlanishi tavsiya etiladi. Test sinovlari o'tkaziladigan kunda **guruh nazoratchisidan** tashqari shaxslarning

test sinovlari o'tkazilishi belgilangan auditoriyaga kirishi taqiqlanadi. Test topshiruvchi talabgor test sinovlari boshlanganidan so'ng test o'tayotgan tegishli auditoriyaga kiritilmaydi.

8. Universitet qabul komissiyasi test sinovlarini tashkil qilish va o'tkazish bo'yicha Bilim va malakalarni baholash agentligi (bundan buyon matnda Agentlik deb yuritiladi)ga xat orqali murojaat qiladi, Akademik grantga talabgorlar ro'yxatini taqdim etadi va tegishli xizmatlarni ko'rsatish yuzasidan o'zaro shartnoma tuziladi.

9. Test topshiriqlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining umumta'lim fanlari o'quv dasturlariga muvofiq tuziladi.

10. Test sinovlari Agentlik tomonidan tayyorlanib taqdim etilgan test topshiriqlari kitobi asosida o'tkaziladi, javoblar varaqasi auditoriyaning o'zida talabgorlar ishtirokida muxirlangan holda Agentlikga test o'tkazilgan kunining o'zida taqdim etiladi, Agentlik tomonidan tekshiriladi.

11. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasi, baholash mezonlari, test topshiriqlari soni O'zbekiston Respublikasi ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha Davlat komissiyasi tomonidan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi.

12. Test sinovlari 2 ta mutaxassislik va 3 ta majburiy fan bo'yicha o'tkaziladi.

13. Har bir test topshirig'iga 4 tadan ("A", "B", "C", "D") muqobil javoblar beriladi.

Majburiy bo'lgan 3 ta fan - ona tili (o'zbek, rus yoki qoraqalpoq tili), matematika va O'zbekiston tarixi fanidan 10 tadan jami 30 ta savol, har bir to'g'ri javobga 1,1 ball beriladi, jami to'plash mumkin bo'lgan ball - 33 ballni tashkil etadi.

Ta'lim yo'nalishiga mos bo'lgan 2 ta mutaxassislik bo'yicha fanlardan 30 tadan savol va ularga mos ravishda har bir to'g'ri javob uchun 3,1 hamda 2,1 balldan beriladi.

14. Beshta fandan to'plash mumkin bo'lgan maksimal 189 ballni tashkil qiladi.

15. Chet tillarni bilish darajasi bo'yicha milliy yoki unga tenglashtirilgan xalqaro tan olingan sertifikatga ega talabgorlarning taqdim etayotgan sertifikatlari inobatga olinmaydi. Mazkur grantni olish uchun o'tkazilayotgan test sinovlarida ishtirok etadi, umumiy tartibda chet tili fanidan test sinovi topshiradi va to'plagan bali umumiy natija bo'yicha hisobga olinadi.

16. Test topshiruvchi chet tillar sifatida ingliz, nemis, fransuz tillaridan biri bo'yicha test sinovi topshiradi. Test topshiruvchi o'qigan chet tilidan qat'iy nazar, xohlagan (ingliz, nemis, fransuz) chet tilidan test topshirishi mumkin.

17. Test topshiriqlarini bajarish uchun (javoblar varaqasini to'ldirish bilan birga) 3 soat vaqt belgilanadi.

III. Test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish

18. Test sinovlari Universitet belgilagan binoda va auditoriyada o'tkaziladi.

19. Universitet binoni tayyorlash, videokuzatuvlar vorsiatalari bilan ta'minlash, test topshiruvchilarni pasportlari asosida kiritish ta'minlanadi.

20. O'tkazilgan test sinovlari jarayoni bo'yicha video yozuvlar bir oy davomida saqlanadi.

21. Guruh nazoratchilari va test topshiruvchilarni test sinovlari o'tkaziladigan binoga kiritish, tadbir jarayonida tartibni saqlash qabul komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

22. Test sinovlari o'tkaziladigan binoda Agentlik vakiliga test materiallarini saqlash, tarqatish va yig'ib olish uchun mo'ljallangan yetarli miqdordagi jihozlangan xona

tayyorlanadi. Bunda xona holati sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga to'liq javob berishi lozim.

23. Har bir guruh uchun ajratilgan auditoriyalar stol va mos ravishda stul bilan ta'minlanib raqamlanishi lozim.

Guruh nazoratchisi uchun test materiallarini tarqatish va qabul qilishga alohida stol va stul ajratilib, auditoriya uzluksiz videokuzatuv bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

24. Test o'tkaziladigan har bir auditoriyani tayyorlashda unga yorug'lik tushishi, shamollatish holati, talabgorni tik tushgan quyosh nuridan himoyalash imkoniyatlari hisobga olinishi lozim.

25. Qabul komissiyasi test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq quyidagi vazifalarni bajaradi:

qabul komissiyasining e'lonlar taxtasiga Akademik grantlar berish to'g'risidagi ma'lumotlar, jumladan, mazkur Tartib, ta'lim yo'nalishlari, grant kvotalari, ularga muvofiq test sinovlari o'tkaziladigan fanlar majmuasi ro'yxatini joylashtirish;

test sinovlarini uyushqoqlik bilan, tartibli tashkil etish, test topshiruvchilarning test sinovlari jarayonidagi vazifalari, huquq va majburiyatlarini tushuntirish, test sinovlari jarayoni bo'yicha maslahatlar, ko'rsatmalar berish;

akademik grant uchun talabgorlar haqidagi tegishli ma'lumotlarni Agentlikka taqdim etish;

har bir smenada test topshiruvchilar va guruh nazoratchilarini yetarli miqdorda ichimlik suvi, havorang pastali sharikli ruchkalar bilan hamda test sinovlari o'tkaziladigan binolarni sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari talablariga to'liq javob berishini ta'minlash.

26. Test sinovlari o'tkaziladigan auditoriyaga guruh nazoratchilari, test topshiruvchilar va boshqa shaxslar tomonidan mikrokalkulyator, lug'at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya vositalari, shpargalkalar va shu kabilarni olib kirishlariga ruxsat etilmaydi, mazkur holat aniqlanganda ushbu holatni sodir etgan shaxs belgilangan tartibda test jarayonidan chetlashtiriladi, ularni test sinovlariga qayta kiritmaslik to'g'risida dalolatnoma rasmiylashtiradi.

27. Agentlik bilan tuzilgan shartnoma asosida test sinovlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish bilan bog'liq quyidagi vazifalar ko'zda tutiladi:

test sinovlarini o'tkazish jarayonida qo'llaniladigan shakllar va jadvallarni ishlab chiqish;

test materiallarining sifatli va nuqsonsiz tayyorlanishini ta'minlash;

test materiallarining belgilangan kunlarda Universitetga yetkazilishini ta'minlash;

belgilangan tartibda talabgorlar haqida tushgan ma'lumotlar asosida guruhlarni shakllantirish va ularning bino-auditoriyalar bo'yicha o'tirish o'rinlarini belgilash hamda test sinovlari va tanlovni tashkil etish;

abituriyentlarning guruhlar bo'yicha taqsimlangan ro'yxatini ikki nusxada, guruh nazoratchilari ro'yxatini ikki nusxada tayyorlash hamda tasdiqlangan holda yetkazish;

test sinovlari tugagandan so'ng test materiallarining Agentlikka olib kelingan javoblar varaqalari bo'yicha test sinovlari natijalarini hisoblash va Universitetga taqdim etish.

28. Quyidagilar guruh nazoratchilarining majburiyatlari hisoblanadi:

test sinovlari o'tkaziladigan kuni o'zi biriktirilgan auditoriyaga yetib kelish va biriktirilgan guruhning test sinovlariga tayyorligini tekshirish, jarayonga salbiy ta'sir etuvchi omillar aniqlanganda, ularni bartaraf etish choralari ko'rish;

guruhdagi stollarning zikzak yoki ketma-ketlikda raqamlanganligini tekshirish;

qabul komissiyasidan test topshiruvchilarning guruhlar bo'yicha ro'yxatini hamda test materiallari qutisini qabul qilib olish;

test topshiruvchining pasporti asosida tekshirib ularni guruh ro'yxati bo'yicha belgilangan joyiga o'tirishini ta'minlash hamda test sinovlariga kelmagan test topshiruvchilarning o'rnini bo'sh qoldirish;

test materiallari qutisida test topshiruvchilar soniga mos test topshiriqlari kitobi, javoblar varaqasi, ishlatilmagan test topshiriqlari kitoblari, javoblar varaqasi uchun bo'sh paketlar va muhrlar mavjudligini tekshirish;

talabgorlarga test topshiriqlari kitobi va namuna sifatida tasdiqlangan javoblar varaqalarini tarqatish;

test topshiriqlari kitobi va javoblar varaqasining nuqsonsizligini tekshirib chiqish hamda ularning tegishli bo'limlarini rasmiylashtirish bo'yicha test topshiruvchiga ko'rsatma berish;

test topshiriqlari kitobida nuqson mavjudligi aniqlansa, uning birinchi betiga "nuqsonli" deb yozish, almashtirilgan vaqtini ko'rsatish hamda test topshiruvchining familiyasi, ismi, otasining ismini yozib, imzolash va ushbu holat haqida dalolatnoma tuzish;

test sinovlariga kelmagan test topshiruvchining test topshiriqlari kitobini test sinovlari boshlanganidan so'ng 15 daqiqa o'tgach ishlatilmagan test topshiriqlari kitobi paketiga solib muhrlash, test topshiruvchilarning guruh bo'yicha ro'yxatiga test sinovlariga kelmagan test topshiruvchi ismi-sharifining to'g'risiga "qatnashmadi" degan yozuv kiritish hamda uning javoblar varaqasi javoblar varaqasi paketiga solib qo'yish;

test topshiruvchilar bilan test topshiriqlari bo'yicha savol-javob qilmaslik;

test topshiriqlari uchun ajratilgan vaqt tugaganligini e'lon qilish, test topshiruvchilarni o'rinlaridan turishlarini talab qilish;

test topshiruvchilarga test materiallarini topshirish bo'yicha ko'rsatma berish;

test topshiriqlari kitobi va javoblar varaqasiga shikast yetmaganligini tekshirib qabul qilib olish;

barcha javoblar varaqalarini javoblar varaqalari paketiga solish;

test sinovlarida qatnashgan test topshiruvchilarning javoblar varaqalarini, "nuqsonli" deb topilgan test topshiriqlari kitobini, test topshiruvchilarning guruhlar bo'yicha ro'yxatining ikkinchi nusxasini javoblar varaqasi paketiga solib, paketni muhrlash;

ishlatilmagan test topshiriqlari kitobi paketi hamda ishlatilgan test topshiriqlari kitoblarini test materiallari qutisiga solib muhrlash.

29. Test sinovlari jarayonida test topshiruvchi quyidagi huquqlarga ega:

test topshiriqlari kitobidan qoralama sifatida foydalanish;

test topshiriqlarini belgilangan muddatdan oldin bajarish, undan so'ng test materiallarini tartib bilan guruh nazoratchisiga topshirish hamda test sinovlari o'tkaziladigan hududdan chiqib ketish.

30. Test topshiruvchi test sinovlari o'tkaziladigan kuni tegishli auditoriyaga soat 10:00 (ikkinchi smena soat 14:00) gacha pasporti bilan tartibli ravishda kirishi bilan birgalikda, quyidagi ishlarni amalga oshirishga majbur:

test materiallari nuqsonsizligini tekshirish va nuqson borligi aniqlansa, darhol guruh nazoratchisiga xabar berish;

javoblar varaqasi to'g'ri to'ldirilishini ta'minlash;

test topshiriqlari kitobi muqovasida va javoblar varaqasida ko'rsatilgan tegishli joylarni rasmiylashtirish;

javoblar varaqasini havo rang pastali sharikli ruchka bilan to'ldirish;

javoblar varaqasini bukmaslik, marker chizig'iga yozmaslik, javoblar varaqasi raqami ostida joylashgan doirachalarni bo'yamaslik;

javoblar varaqasi bilim darajasini belgilovchi asosiy hujjat bo'lganligi uchun uni to'g'ri to'ldirish;

belgilangan vaqt tugaguniga qadar test topshiriqlari kitobida mavjud test topshiriqlarini bajargan holda javoblar varaqasining mos tartib raqamidagi tegishli doirachalarini bo'yab, test topshiriqlari kitobini va unga mos bo'lgan javoblar varaqasini guruh nazoratchisiga topshirish.

31. Test topshiruvchi tomonidan har bir test topshirig'iga faqat bitta javob belgilanishi shart bo'lib, test topshiriqlari kitobida to'g'ri deb hisoblangan javoblarni javoblar varaqasidagi mos tartib raqamli doirachadan bittasini bo'yaydi (javoblar varaqasida bo'yalgan javoblarni o'zgartirish mumkin emas). Agar, javoblar varaqasidagi "belgilash uchun namuna" qoidasiga rioya etilmasa, jumladan, bitta test topshirig'iga javoblar varaqasida tegishli doiracha bo'yalmasa yoki ikki va undan ortiq doiracha bo'yalsa yoxud to'liq bo'yalmasa ushbu test topshirig'iga ball berilmaydi.

32. Test topshiruvchining test sinovlarini topshirish vaqtida belgilangan auditoriyadan chiqishi taqiqlanadi, auditoriyadan chiqqan test topshiruvchilar qaytadan test sinovlariga qo'yilmaydi.

33. Quyidagi hollarda test topshiruvchi test sinovlari jarayonidan chetlashtiriladi va natijalari chiqarilmasligiga asos bo'ladi:

test sinovlari o'tkaziladigan auditoriyaga kirishda mikrokalkulyator, lug'at, jadval, kitob, uyali telefon, kompyuter, telekommunikatsiya qurilmalari va boshqa vositalar, shpargalkalar olib kirishga harakat qilsa, olib kirgan bo'lsa yoki ulardan test sinovlari davomida foydalansa;

test materiallarini boshqa test topshiruvchiga uzatsa yoki ularga yordam bersa;

test sinovlari jarayonida bir-biri bilan gaplashsa;

test materiallarini binodan tashqariga olib chiqsa, test topshiriqlari kitobi varag'ini yirtsa;

test sinovlari uchun ajratilgan vaqt tugagandan so'ng test materiallarini topshirishdan bosh tortsa;

test sinovlari jarayonida videokuzatuvlar orqali abituriyentning tartib va qoidalarga amal qilmaganligi aniqlansa.

IV. Test sinovlari natijalarini e'lon qilish va grantlarni ajratish

34. Test topshiruvchilarning to'plagan ballari haqidagi ma'lumot test sinovi o'tkazilgan kunning ertasiga, Universitet rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

35. Akademik grantlar barcha uchun teng huquqlilik, yagona qoidalar va yagona tanlov asosida amalga oshirilib, test sinovlarida eng yuqori ball to'plagan test topshiruvchilarga grant belgilash huquqi ta'minlanadi.

Bunda talabgorlar test sinovida to'plash mumkin bo'lgan maksimal 189 balldan kamida 134,19 ballni qo'lga kiritgan bo'lishlari shart.

36. Agarda talabalar soni grantlar sonidan ortiq bo'lgan va bir necha talabgor bir xil ball to'plagan taqdirda bir xil ball to'plagan talabalar orasida qayta test o'tkazish orqali g'olib aniqlanadi.

37. Test sinovlari natijasidan norozi bo'lgan test topshiruvchilar 1 kun muddatda Universitet rektoriga yozma apellyatsiya shikoyatini berish huquqiga ega.

38. Rektor tomonidan tuzilgan Apellyatsiya komissiyasi apellyatsiya shikoyatini ko'rib chiqish jarayonida qabul komissiyasi a'zolarini hamda guruh nazoratchilarini ularga tegishli masalalar bo'yicha jalb etadi.

39. Test topshiruvchi murojaat qilganda unga apellyatsiya shikoyati bo'yicha qabul qilingan qarordan ko'chirma beriladi.

40. Test topshiruvchining javoblar varaqasi, test topshiriqlari kitobi yirtilgan bo'lsa, shuningdek, test sinovlaridan chetlashtirilgan yoki o'zining javoblarini yozma ravishda bayon qilmagan test topshiruvchining apellyatsiya shikoyati ko'rib chiqilmaydi.

V. Yakunlovchi qoida

41. Mazkur Tartib talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar tegishli qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.